



THE ARTISTIC CHARACTERISTICS AND POETICAL SKILLS OF THE POEM “BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB” BY ZULFIYA

Shahzoda Jontayeva¹

M.X. Mirsanova²

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

DOI: 10.5281/zenodo.15395281

Article History	Abstract
Received: 10.04.2025 Accepted: 13.05.2025	This article will provide an artistic analysis of the poem “Spring has come to interrogate you”, which refers to the work of Zulfiya, the largest representative of Uzbek poetry. The content of the poem, the system of images, the means of artistic representation and the skill of the poetess are investigated, the harmony of spring and human experiences in it is analyzed.

Keywords: Zulfiya, lyrical poem, Spring, longing, artistic image, poetic skill, images.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of the Primary Education Department, Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Uzbekistan

² Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Uzbekistan

“BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB” SHE‘RINING BADIYATIDAGI O‘ZIGA XOSLIK VA SHOIRA MAHORATI

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Zulfiya, lirik she‘r, bahor, sog‘inch, badiiy tasvir, poetik mahorat, obrazlar

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o‘zbek she‘riyatining yirik namoyandasi Zulfiya ijodiga mansub “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri badiiy tahlil qilinadi. She‘rning mazmuni, obrazlar tizimi, badiiy tasvir vositalari va shoira mahorati o‘rganilib, undagi bahor va inson kechinmalari uyg‘unligi tahlil qilinadi.

Kirish. O‘zbek adabiyotining yuksak lirik an‘analarini davom ettirgan Zulfiya o‘z she‘rlarida tabiat va inson qalbi uyg‘unligini mahorat bilan ifodalagan. Uning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ri bahor faslining go‘zalligi va inson ruhiy holati bilan bog‘liq kechinmalarni aks ettirish bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada she‘rning badiiyati va poetik qurilishi tahlil qilinadi.

Asosiy qism. O‘zbek she‘riyatining o‘lmas siymolaridan biri, nafis va samimiy lirik sherlari bilan o‘zbek adabiyotiga bebaho hissa qo‘shgan Zulfiyaxonim o‘z ijod yo‘li davomida go‘zallik, muhabbat, sadoqat va tabiat haqida o‘zining betakror satrlarini yaratgan. O‘zbek adabiyotida bahor mavzusi doimo ilhom manbai bo‘lib kelgan.

Bu mavzuda ko‘plab she‘rlar bitilgan bo‘lsada, har bir shoir uni o‘ziga xos uslub va poetik tafakkur orqali talqin etadi. Shulardan biri o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan bo‘lgan Zulfiya qalamiga mansub “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘ridir. Ushbu she‘rda shoira bahor kelishini inson kechinmalari bilan bog‘lab, tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalagan.

Zulfiya ushbu she‘rida bahorni shunchaki tabiat hodisasi sifatida emas, balki inson qalbidagi tuyg‘ular bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Bahor kelishi – bu faqatgina tabiatning uyg‘onishi emas, balki inson qalbidagi xotiralar, sog‘inch va his-tuyg‘ularning ham yangilanishi, jonlanishidir.

She‘rda shunday misralar borki, ohangidan ko‘ngil yayraydi. Quyida to‘rt misraning nafisligi va jilosiga diqqat qilsak:

“Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.”[1.23]

Bu satrlarda bahorning go‘zalligi juda nozik tasvirlangan. Shoira bahorni faqat umumiy tasvir bilan emas, balki aniq detallar orqali jonlantiradi:

“Salqin saharlarda bodom gulida” – bahorning ilk belgisi sifatida bodom gulining ochilishi tasvirlangan. Bu inson qalbida uyg‘onayotgan iliq tuyg‘ular bilan uyg‘unlashadi.

“Binafsha labida yerlarda bahor” – binafsha guli obrazi orqali bahorning nozikligi va

nafisligi aks ettiriladi.

“Qushlarning parvozi yellarning nozi” – qushlarning uchishi hayotning davomiyligi, yellar bilan bog‘liq o‘tkinchi, ammo go‘zal lahzalarni anglatadi.

“Baxmal vodiylarda qirlarda bahor” – vodiya va qirlar bahor kelishi bilan baxmaldek yumshoq, yashil tusga kirishi tasvirlangan.

Ushbu misralar orqali bahor nafaqat tabiatning uyg‘onishi, balki inson qalbining ham yangilanishi, hayotga bo‘lgan ishtiyoqning ortishi ramziga aylanadi.

Obrazlar tizimi va badiiy tasvir vositalariga ham diqqat qilmoq lozim. Zulfiya o‘z she‘rida quyidagi badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanadi:

Tashbeh: Bahorning kelishi bodom gullari, binafsha, qushlarning parvozi bilan taqqoslanadi.

Metafora: “Yillarning nozi” iborasi yillar oqimi va hayotning go‘zal lahzalarini nazokatli qilib ifodalaydi.

Personifikatsiya: Bahor inson kabi keladi, sog‘inadi, izlaydi va hayotga iliqlik olib keladi.

Epitetlar: “Salqin sahar”, “baxmal vodiya”, “binafsha lab” kabi sifatlashlar she‘r ohangiga nafislik baxsh etadi.

Zulfiya she‘rlari o‘zining musiqa singari ohangdorligi bilan ajralib turadi. Uning ushbu she‘rida ham qofiya va ritm uyg‘unligi saqlanib, so‘zlarning yumshoqligi, ma‘noli tus olishiga xizmat qiladi. She‘rning tabiiy oqimi bahorning mayin shabbodalarini eslatadi, o‘quvchini o‘ziga tortadi.

Shoiraning poetik mahoratiga tahsinlar aytish joiz albatta. Zulfiyaning badiiy mahorati uning tasvirlardagi nozik didi va his-tuyg‘ularni sodda, ammo nihoyatda ta‘sirchan ifodalashida namoyon bo‘ladi. U tabiatni shunchaki fon sifatida emas, balki inson qalbi va ruhiyati bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlaydi. “Bahor keldi seni so‘roqlab” she‘rida ham shoira bahorni inson kechinmalarining aks-sadosi sifatida tasvirlaydi. She‘r lirik qaxramon monologi shaklida yozilgan bo‘lib, unda bahor tasviri va inson qalbidagi quvonchli hislar o‘zaro uyg‘unlashadi. She‘r bahorning kelishi bilan aziz insonni eslash, sog‘inish va kutish hissiyotlari asosida qurilgan. Bahor tabiat uyg‘onishi, yangilanish fasli bo‘lsada, muallif uchun u ma‘lum bir dard, quvonch va umidni o‘zida jamlagan ramz sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira bahorni faqat tashqi go‘zallik, fasllarning almashinuvi sifatida emas, balki sevgi, mehr, sadoqat va sog‘inch timsoli sifatida tasvirlaydi.

Biz bu misralarning har birida sevgan insonni yodga soluvchi xotira, dil izhori va his tuyg‘ular aks-sadosini ko‘rishimiz mumkin. Uning lirik qahramoni odatda beg‘ubor tuyular olishidagi inson bo‘lib, u sevgi va bahorni ichki kechinmalar bilan bog‘laydi. She‘r “Bahor keldi seni so‘roqlab” misrasi bilan boshlanadi. Bu satrning o‘ziyoq sherning asosiy g‘oyasini ochib beradi. Bahor shunchaki kelmaydi, u kimnidir izlab keladi, sog‘inch bilan kirib keladi. xotiralarni yangilaydi. She‘r davomida bahorning go‘zal tasvirlari bilan inson qalbining iztiroblari bir-biriga qorishib boradi. Go‘yo tabiat uyg‘onishi bilan inson qalbidagi ham eski xotiralar jonlanadi umid va orzulari yangilanadi. Lekin shu yangilanishning o‘zi ham ich-

ichidan sog'inchni sezdiradi. Bahor yurakka iliqlik olib kiruvchi, lekin shu bilan birga, kimnidir eslatib, qalbni o'rtovchi fasl sifatida gavdalanadi. Endi shoira mahoratiga keladigan bo'lsak, Zulfiya kechinmalarni tabiiy ifodalash mahoratiga ega shoiradir. Uning she'rlari badiiy vositalarga haddan ortiq to'lib-toshgan emas, u shunday soddalik bilan chuqur ma'noni ifodalaydiki, o'quvchi beixtiyor o'sha tuyg'ularni yuragidan o'tkaza boshlaydi. Zulfiya she'riyati bizga shuni o'rgatdiki, bahor faqat tabiatda emas, balki yurakda ham bo'lishi kerak. Qalbdan muhabbat va umid bo'lsa, har fasl bahorday go'zal bo'ladi. Shoiraning har bir misrasi bizni hayotni sevishtga, tabiatdan ilxom olishga va yurakdagi eng go'zal hislarga sodiq qolishga undaydi. Demak, bahor nafaqat tabiatga, balki inson qalbiga ham kelishi kerak-muhabbat, sog'inch, va orzular bilan!

Xulosa. Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri nafaqat bahorning kelishini aks ettiradi, balki inson qalbidagi tuyg'ularni ham go'zal va poetik tarzda ifodalaydi. She'rda bahor obrazining tabiat va inson ruhiyatiga bog'lanishi, badiiy tasvir vositalarining nozik ishlatilishi, poetik mahoratning yuksakligi yaqqol ko'rinadi. Shoira o'zining samimiy va hissiyotga boy lirik uslubi bilan bahorni inson qalbidagi iztirob va sog'inch bilan uyg'un holda talqin etadi.

Bu she'r va umuman Zulfiya ijodi o'zbek she'riyatida beqiyos ahamiyat kasb etib, o'quvchiga nafaqat bahor faslining go'zalligini, balki uning ramziy ma'nolarini ham anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston, 2022-yil. 416-bet
2. Zulfiyaxonim Isroilova, Bahor keldi seni so'roqlab, T.:, 2021 y
3. Zulfiyaxonim Isroilova, She'rlar & Naim Karimov. Zulfiya opa haqida, T.: 2023 y. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/karimov-zulfiya-poetry.html>
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. 3- жилд. – 688 б.
5. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari-T.: Kamalak, 2016 y,